

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XIV RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 14-son (28-iyul, 2026-yil).– 99 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-iyul

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XIV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

"SUYAK" KONSEPTINING ETNOMADANIY ILDIZLARI VA UNING O'ZBEK ADABIYOTIDAGI BADIY-SEMANTIK IN'IKOSI

Narzullayeva Nilufar Sayfulloyevna

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Email: nilufarnarzulloyeva1997@gmail.com

Tel: +998942355300

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tili va adabiyotida "suyak" leksemasining semantik evolyutsiyasi hamda lingvopoetik xususiyatlari etno-madaniy va arxetipik tasavvurlar kontekstida tahlil qilingan. Tadqiqotda zardashtiylikdagi ostodon marosimlari, xalq ertaklari ("Uchar gilam"), marosimiy udumlar, paremiologik birliklar, shuningdek, Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy va Sherbek Bobonor o'g'lining badiiy asarlaridagi suyak (so'ngak) detalining semantik va metaforik qatlamlari yoritib berilgan. Leksemaning inson jismoniy va ruhiy xotirasi, matonat, ijtimoiy tabaqalanish ("oqsuyak"/"qorasuyak") hamda poetik tashbehlar sifatidagi lingvokulturologik ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, lingvopoetika, semantik evolyutsiya, suyak, ostodon, arxetip, etnomadaniy xotira, metafora, oqsuyak/qorasuyak, Oshiq o'yini.

ETHNOCULTURAL ROOTS OF THE CONCEPT OF "BONE" AND ITS ARTISTIC-SEMANTIC REFLECTION IN UZBEKISTAN LITERATURE

Narzullayeva Nilufar Sayfulloyevna

Bukhara State University PhD student

Annotation. This article analyzes the semantic evolution and linguopoetic characteristics of the lexeme "suyak" (bone) in the Uzbek language and literature within the context of ethno-cultural and archetypal representations. The research highlights the Zoroastrian ostodan rituals, folktales ("Uchar gilam"), ritual customs, paremiological units, as well as the semantic and metaphorical layers of the bone detail in the literary works of Alisher Navoi, Abdulla Qodiriy, and Sherbek Bobonor o'g'li. The linguoculturological significance of the lexeme is demonstrated through its representation of physical and spiritual human memory, resilience, social stratification ("oqsuyak"/"qorasuyak"), and poetic similes.

Keywords: linguoculturology, linguopoetics, semantic evolution, bone, ostodan, archetype, ethno-cultural memory, metaphor, aristocrat/commoner, Oshiq game.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymif-y2026v2i14/n12>

O'zbek adabiyoti va tili taraqqiyotini o'rganishda so'zlarning semantik evolyutsiyasini qadimiy etno-madaniy qarashlar bilan bog'liq holda tahlil qilish lingvokulturologiya va lingvopoetikaning dolzarb masalalaridan biridir. Badiiy matnlarda uchraydigan ko'plab obrazli birliklar kabi "suyak" leksemasi ham o'z ildizlari bilan qadimiy e'tiqodlar, dafn marosimlari va arxetipik tasavvurlar bilan chambarchas bog'langan. Janubiy-sharqiy Osiyo xalq ajdodlari o'z ajdodlarini ikki marotaba dafn qilgan. Birinchi dafnda marhum jasad yerga qo'yilgan, ikkinchi dafnda chirigan va suyagi qolgan jasadning suyaklari yig'ib olinib daryoda yuvib shundan keyin suyaklarni maxsus suyakdonlarga solishgan va 2-dafn marosimini uyushtirishgan. Bu davr insonlari suyaklarga sig'inishi go'yoki ajdodlari ruhiga sig'inishi edi. Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatida, xususan, zardashtiylik an'anasida inson tanasi va suyagiga nisbatan o'zgacha munosabat mavjud bo'lgan. ...zardashtiylik dinida mardalarni bevosita yerga ko'mishni taqiqlagan va ularning tozalangan suyaklarini ostodon deb atalgan maxsus sopol yashiklarda

ko'mishni taqozo etgan[1]. Ushbu e'tiqodga ko'ra, inson vafot etgach, uning toza suyaklari ostadon (suyakdon)larga solinib, tabiat unsurlarini (tuproq, suv, olov) bulg'amagan holda saqlangan. Bu jarayonda suyak — inson jismoniy borlig'ining so'nggi va eng chidamli moddiy tayanchi, uning dunyodagi izi va ruhiy xotirasi sifatida qabul qilingan. Aynan mana shu madaniy-arxeologik va mifologik tasavvurlar vaqt o'tishi bilan adabiy tilga va badiiy tafakkurga ko'chgan.

Shu ma'noda, o'zbek adabiyotida "suyak" so'zining qo'llanishi shunchaki anatomik birlikning badiiy matnga kirib kelishi emas, balki xalqning ming yillik etnomadaniy xotirasi va lingvistik tafakkurining poetik in'ikosidir. "Suyak" so'zi xalq og'zaki ijodi namunalari, ertak, maqol, naql va xalq o'yinlarida ham uchraydi. "O'zbek xalq ertaklari" to'plam kitobida "Uchar gilam" ertagi mavjud, aynan shu ertakda "suyak" detallini ko'rishimiz mumkin. Ushbu ertakda ertak qahramoni betob qizini davolatish uchun kalla suyagini ezib dori sifatida unga ichiradi, qiz tuzaladi, ammo u bu dorini ichib homilador bo'lib qoladi. Oy kuni yetib bola tug'iladi, bola mislsiz aql kuchiga ega bola bo'lib yetishadiki, uni podshoh o'zining yaqin kishisi sifatida ko'ra boshlaydi. Voqea oxirida sho'xlik sabab bobosidan kaltak yegan bu aqlli bola bir yig'lab yana qayta kalla suyagiga aylanib qoladi. Bolaga qo'shib o'zim ham bola bo'lib qolibman. Endi bunga bir po'pisa qilib qo'rqitib qo'ymasam bo'lmaydi, dedim-u, bir shapaloq urdim, bola ikki yumaladi-yu, go'ristondan topganim quruq suyak kalla bo'lib qoldi[2]. Ushbu ertakda "suyak" metaforik ma'noga ega bo'lib, qayta tug'ilishga ishora qiladi. Shuningdek xalq orasida ayrim erkaklarga nisbatan "Ayollarga suyagi yo'q" frazemasi uchraydi. Ushbu ibora xotinboz, ko'pgina ayollar bilan aysh-ishrat qiladigan erkaklarga nisbatan qo'llaniladi. Yana "Til-besuyak" frazemasi asosan o'rinsiz gapirish, o'ylamay gapirib birozning dilini vayron qilgandagi vaziyatda qo'llaniladi va ushbu frazada aytgan so'zidan pushaymon bo'lgan shaxs gap oxirida shu iborani qo'llab o'z pushaymonini bildiradi.

Oshiq o'yini qo'y, echki yoki kiyik kabi mayda tuyoqli hayvonlarning orqa oyog'idagi oshiq (oshig'ich) suyagidir. O'yinda ishlatiladigan oshiqlar tozalanib, ba'zan har xil ranglarga (qizil, yashil, ko'k) bo'yaladi. Oshiqning to'rtta tomoni bo'lib, ularning har birining o'z nomi va qimmat bor: tavcha (botiq tomoni), o'mka (qavariq tomoni), chik (tekis yon tomoni), puk (chuqurchasi bor yon tomini). O'yinda eng asosiy va og'irroq oshiq "saka" (yoki *soqa*) deyiladi. Saka o'yinchining asosiy "quroli" bo'lib, uni boshqa oshiqlarga urish uchun ishlatishadi. Uni yaxshiroq va og'irroq qilish uchun ba'zan ichiga qo'rg'oshin eritib quyilgan. Oshiq o'yini shunchaki vaqt o'tkazish emas, balki yoshlarda bir qancha ko'nikmalarni shakllantirgan: merganlik, strategiya va motorikani shakllanishiga yordam beradi. Bu o'yin folklor festivallari hamda Navro'z sayillarida musobaqa sifatida o'tkazib kelinadi.

O'zbek xalqida yangi imorat qurilganda tom ustida qurbonlik qilinadi. Bunda qurbonlikka asosan tuyoqli hayvon, qo'y yoki echki tomga chiqariladi va so'yiladi. Pichoq tortilib bo'yindan chiqadigan issiq qon tomdan devor bo'ylab oqadi. Bu udum oxirida uy xojasi mayda molning kalla suyagini jun va go'shtidan tozalab hovlining bir burchagiga osib qo'yadi. Udumdagi qon oqizish bu yorug'lik, totuvlik, kalla suyagi esa hovlini begona nazardan asrash kabi ramziy ifoda beradi.

Hadislarda erkaklarga qarata aytilgan jumlar ko'p. Shulardan biri ayol erkakning qiyshiq qovurg'asidan yaralgani va shu sababli ayollarning ayb va kamchiliklariga erkak o'rni kelganda ko'z yumushi nazarda tutiladi.

Turkiy til asoschisi, Alisher Navoiyning "Aro" radifli g'azalida suyak so'zi so'ngak tarzda qo'llanadi.

Ajab yo'q, oqsa erib mag'zi ustuxonimkim,
O'tun so'ngaklar erur shu'layi nihonim aro[3].

Ushbu baytda oshiq muhabbati kuchayib uyaklari eriydi va suyak ichidagi iliklari oqadi, ammo suyaklarning yonishi tanadan tashqariga ko'rinmaydi. Ushbu baytda suyak so'zi o'tinga o'xshatilish orqali tashbeh san'atini hosil qiladi.

Abdulla Qodirining "O'tkan kunlar" romanida "Егасини сийлаган итига суяк ташлар"[4] maqoli uchraydi. Ushbu maqolda it va suyak detallari orqali kishi xonadon egasini, do'stini yoki biror obro'li insonni qattiq hurmat qilsa, uning ko'nglini olish va izzatini joyiga qo'yish uchun uning farzandi, qarindoshi yoki unga yaqin kishilarga ham alohida iltifot ko'rsatish ma'nosi tushuniladi.

Sherbek Bobonor o'g'lining "Qora suyaklar" nomli kitobi shu nomli qissa hamda bir qator esselarni o'z ichiga oladi. Kitobga berilgan nom xalqimizdagi "oqsuyak" iborasiga zid ravishda, tushunchaning aksi o'laroq tanlangan. Zero, o'zbek tilida qo'llanuvchi "oqsuyak" hamda "qorasuyak" so'zlari shaxslarning shajara va kelib chiqishini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu so'zlar boshqa millatlarda ham shu vazifani bajaradi. Qozoq xalqining an'anaviy dunyoqarashidagi Oqsuyak tushunchasi sotsiologiyadagi "aristokratiya" va "elita" tushunchalariga yaqin [5]. Qorasuyaklar esa oddiy, qatlamli xalq kishilaridir.

Yozuvchi badiiy matn qatlamida ushbu etnomadaniy hodisaga tayangan holda ish ko'radi. Asarda "qorasuyak" metaforasi qahramonlarning ijtimoiy kelib chiqishi, hayotiy fojialari hamda qismatidagi qiyinchiliklar bilan parallel ravishda shakllanadi. Ayni paytda muallif personajlarning matonati va sabr-bardoshini "suyak" ramzi orqali ko'rsatadi. To'g'ri, ota-buvamiz qilmagan ish. Nima qilay, sizlarning yo'rig'ingizni tutsam... ko'karishimga ko'zim yetmadi. Ko'proq dadamning ko'zi yetmadi. Nimachilikka bo'lsayam o'qi, dedi. Qora mehnatga qolgan kunning ochdan o'lasan dedi. Va o'qitdi. O'ziday yashamasligim yashay olmasligim uchun [6].

Tahlillar ko'rsatadiki, o'zbek tili va adabiyotida "suyak" leksemasi shunchaki anatomik tushuncha emas, balki xalqning ming yillik etnomadaniy xotirasini aks ettiruvchi teran semantik birlikdir. Ushbu leksema zardashtiylikdagi ostodon va ikkilamchi dafn marosimlari orqali inson jismoniy borlig'ining so'nggi tayanchi hamda ruhiy xotirasi ramziga aylangan. Folklor va xalq udumlarida qayta tug'ilish, xonadonni yomon ko'zdan asrovchi vosita hamda milliy o'yinlarda (*Oshiq o'yini*) epchillik timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Ibora va maqollarda inson xarakteri hamda axloqiy tushunchalarni ("*Til — besuyak*"), mumtoz poeziyada oshiqona iztirob va yonishni (Navoiyda *o'tun/so'ngak*), zamonaviy nasrda esa ijtimoiy tabaqalanish hamda matonatni (*oqsuyak/qorasuyak*) ifodalaydi. Muxtasar aytganda, "suyak" so'zining evolyutsiyasi qadimiy madaniy-mifologik qarashlarning adabiy til va badiiy tafakkurga qanday ko'chganini lingvokulturologik jihatdan to'la isbotlaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Egamberdiyeva, N. A. Arxeologiya: Darslik. – Toshkent, 2022. – 150 b.
2. O'zbek xalq ertaklari. 3 jildlik. 1-jild. – T.: O'qituvchi, 2014. – B.332-335.
3. Nishanova, D. X. Alisher Navoiyning "Aro" radifli g'azalini tasvirlar bilan integratsiya qilgan holda o'rganish [Elektron resurs] // "Globallashuv sharoitida ilm-fan

- muammolari" xalqaro ilmiy konferensiyasi. – Kirish rejimi: [<https://inlibrary.uz/index.php/international-scientific/article/view/78631/80284>]
(Murojaat qilingan sana: 21.07.2026).
4. Qodiriy, A. O'tkan kunlar: Roman [Elektron resurs]. – Toshkent: Ziyouz kutubxonasi. –B. 183.
 5. Kirish rejimi: [www.ziyouz.com](<https://www.ziyouz.com>) (Murojaat qilingan sana: 21.07.2026).
 6. Қазақтың этнографиялық категориялар, ұғымдар мен атауларының дәстүрлі жүйесі. Энциклопедия. - Алматы: DPS, 2011. - [ISBN 978-601-7026-17-2](#)
 7. Sherbek Bobonor o'g'li. Qora suyaklar. – Toshkent: Huzur, 2024. –B.100.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XIV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, iyul

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 14-son (28-iyul, 2026-yil). – 99 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-iyul.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.